



O'ZBEK TILIDAGI FE'L ZAMON SHAKLLARINING KORPUS LINGVISTIKASIDA BERILISHI

Normamatova Shaxzoda

O'zMU Xorijiy til va adabiyoti (ingliz) yo'nalishi

1-kurs talabasi

shahzodanormamatova0820@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'zbek tilidagi fe'l zamon shakllarining qo'llanish xususiyatlari korpus lingvistikasi bo'yicha tahlil qilinadi va turli matn janrlarida fe'l zamon shakllarining qanday ishlatilishi tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: mustaqil fe'l, yordamchi fe'l, mayl, korpus lingvistikasi, publitsistik uslub.

Fe'l zamon shakllari o'zbek tilida grammatik kategoriyalar orasida muhim o'rin egallaydi. Ular gapda voqea-hodisaning vaqtga nisbatan joylashuvini ifodalab, nutqning mazmuniy aniqligi va izchilligini ta'minlaydi. Grammatik nuqtayi nazardan, zamon shakllari hozirgi, o'tgan va kelasi zamonga bo'linadi, har biri o'ziga xos morfologik vositalar yordamida yasaladi. Masalan, hozirgi zamon fe'llari -yapti, -moqda, -moqda kabi affikslar orqali ifodalanadi: yozyapti, o'qimoqda. Stilistik jihatdan esa, zamon shakllari nutqdagi ifoda uslubi, muallifning munosabati va kontekstga mos ravishda ma'no yukini oshiradi. Masalan, hozirgi zamon adabiy matnlarda hodisani jonli tasvirlash vositasi sifatida ishlatiladi, o'tgan zamon esa hikoya uslubining asosiy elementi bo'lib xizmat qiladi. Kelasi zamon esa, odatda reja, niyat yoki ehtimolni bildiruvchi shakl sifatida qo'llanadi. Stilistik funksiyalar zamon shakllarining tanlanishida asosiy



mezonlardan biri hisoblanadi, chunki ular matnning ekspressivlik darajasiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Fe'llar harakat ma'nosini bildiruvchi so'zlardir. Grammatikada harakat tushunchasi juda keng bo'lib, uxlamaq, yotmaq, turmaq kabi fe'llar ifodalaydigan holatlarni, qo'rqmoq, cho'chimoq, zavqlanmoq, qahrilanmoq kabi fe'llar bildiradigan psixik o'zgarishlarni, gullamoq, o'smoq kabi fe'llar bildiradigan biologik jarayonlarni va shu kabi hodisalarni o'z ichiga oladi. Bularning har birining o'ziga xos xususiy tomonlari bo'lishi bilan birga, ularning hammasi uchun umumiy bo'lgan tomoni ham bor, ya'ni bularning hammasi zamon bilan bog'liq holda yuz beruvchi hodisa hisoblanadi. Shuning uchun bu harakat-hodisalarni bildiruvchi so'zlarning hammasi «**nima qilmoq?**» savoliga javob bo'ladi. Ularni bir guruhga kiritish va «**fe'l**» deb atashda ham aynan shu umumiy xususiyati asosga olinadi. Shuningdek, o'zbek tilshunosligi sohasida taniqli olim, til nazariyasi va grammatikasi bo'yicha mutaxassis Shavkat Rahmatullayevning fikricha, fe'l leksemalarni ko'makchi fe'llardan ajratish lozim. Fe'l leksemalar – leksik birlik, ko'makchi fe'llar – grammatik birlik: grammatik ma'no ifodalashga xizmat qiladi, shunga ko'ra morfemalarning bir turi – leksik tabiatli morfema deyiladi

O'zbek tilidagi fe'llar leksik-grammatik xususiyatlariga ko'ra ikki asosiy guruhga bo'linadi: mustaqil fe'llar va yordamchi fe'llar [1.4].

Mustaqil fe'llar bir necha muhim belgilar bilan ajralib turadi: 1. Ma'no jihatdan mustaqil bo'lib, ular harakat yoki holatni bildiradi va gapda mustaqil sintaktik vazifani bajaradi.

-Agar mening topshirgan topshirig'imni bajarsanglar, vazirlik o'rinlaringda qoldiraman [2.139].

-Har vaqt maqtaydigan pichog'ini qinidan sug'urib, tarvuzni kesdi. [2.357].



2. Boshqaruv xususiyatiga ega bo‘ladi, ya’ni boshqa so‘zlarni o‘ziga bo‘ysundiradi.

Masalan: – *Kitobni o‘qimoq, bog‘ni sug‘ormoq.*

3. Fe‘l orqali ifodalangan harakat real hayotdagi hodisani emas, balki inson ongida aks etgan voqelik haqida abstrakt tasavvurni bildiradi. Boshqacha aytganda, fe‘l orqali ifodalangan harakat inson, xususan so‘zlovchining qarashlari, bahosi bilan uyg‘unlashadi.

Bu munosabat fe‘l mayli orqali ifodalanadi va shu asosda mayl shakllari vujudga keladi (buyruq mayli, shart mayli va h.k.).

Yordamchi fe‘llar o‘zlari mustaqil harakat bildirmaydi, ya’ni leksik ma’noga ega emas. Ular til tizimida asosan grammatik vazifalarni bajarish uchun xizmat qiladi. Yordamchi fe‘llar quyidagi uch toifaga bo‘linadi: 1. So‘z yasovchi yoki bog‘lovchi yordamchi fe‘llar – so‘z birikmalarini hosil qilish yoki gap bo‘laklarini bog‘lash vazifasini bajaradi. Misol tariqasida *bo‘lmoq, qilmoq*: “*katta bo‘ldi*”, “*ish qilindi*” fe‘llarini keltirishimiz mumkin. 2. Qo‘shimcha ma’no yuklovchi yordamchi fe‘llar, ya’ni ko‘makchi fe‘llar deb ataladi. Ular asosiy fe‘l bilan birikib, harakatga ohang, uslubiy yoki modal ma’no qo‘shadi. Masalan: “*yugurib chiqdi*”, “*yozib tashladi*”. 3. Talaffuzda to‘la ifodalanmagan, ammo grammatik tuzilishda muhim rol o‘ynaydigan to‘liq bo‘lmagan yordamchi fe‘llar, ya’ni to‘liqsiz fe‘llar. Ular ko‘pincha zamon, modal yoki sintaktik ma’no yuklaydi. *Edi, ekan, emish* shular jumlasidandir.

– *U ketgan edi.*

– *U maktabga borgan ekan.*

Har qanday tabiiy tilda bo‘lgani kabi, o‘zbek tilida ham fe‘lning zamon shakllari voqea-hodisalarni vaqt doirasida ifodalashda muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi. Zamon vositalari orqali so‘zlovchi hodisaning qachon sodir bo‘lganini yoki



sodir bo‘lishini bildiradi. Harakat bilan uning amalga oshadigan vaqti orasidagi munosabatni

ifodalovchi morfema zamon yasovchi morfema deyiladi; bunday morfemalar tizimi zamon yasovchilari paradigmasini tashkil etadi. Fe'ning zamoni harakat amalga oshadigan vaqtni obyektiv vaqtga nisbat berib belgilanadi, bunda nutq payti o‘lchov qilib olinadi: harakat nutq paytidan oldin voqe bo‘lgani ifodalansa, o‘tgan zamon deb, nutq paytida voqea bo‘layotgani ifodalansa, hozirgi zamon deb, nutq paytidan keyin voqe bo‘lishi ifodalansa, kelasi zamon deb belgilanadi [3.182]

Hozirgi zamon fe’l orqali harakatning ayni paytda, nutq chog‘ida sodir bo‘layotganini bildiradi. Bu zamonning asosiy morfologik shakllari **–yapti**, **–moqda** va **–yapman / –moqdaman** kabi affikslar yordamida yasaladi. Bu affikslar fe’l negiziga qo‘shilib, harakatning davomiyligini yoki hozirgi holatini ifodalaydi. Misol uchun: *U ishlayapti, Talaba o‘qimoqda, Men yozayapman* kabi shakllarda ushbu zamon ifodalanadi. **“–moqda”** shakli adabiy va rasmiy uslubda, **“–yapti”** esa ko‘proq og‘zaki va norasmiy nutqda ishlatiladi. Bu shakllarda yordamchi fe’l sifatida **“bormoq”**, **“turmoq”** kabi fe’llar ham ko‘rinmaydigan holda ishtirok etishi mumkin.

O‘tgan zamon esa harakat yoki holatning nutq paytiga nisbatan ilgari sodir bo‘lganini anglatadi. Bu zamon morfologik jihatdan bir necha shaklda ifodalanadi. Eng oddiy va aniq shakli **–di** affiksi bilan yasaladi, bu guvohlik bildiruvchi, aniq sodir bo‘lgan harakatni anglatadi: *U keldi, Men yozdim, Biz o‘ynadik*. Noaniq yoki shubhali o‘tgan zamonni ifodalashda esa **–gan / –kan** qo‘shimchalari ishlatiladi: *U kelgan, U borgan ekan, Men ko‘rganman*. Bu shakllar ko‘pincha boshqa kishidan eshitilgan yoki so‘zlovchi ishonch bilan aytmaydigan harakatlar uchun ishlatiladi. Shuningdek, o‘tgan

zamon yordamchi fe’llar bilan murakkab shaklda ham ifodalanadi: *aytgan edi, kelgan ekan, o‘qigan bo‘lsa kerak* kabi.



Kelasi zamon esa harakatning kelajakda sodir bo'lishi ehtimoli yoki rejalashtirilganligini bildiradi. Bu zamon ham ikki xil yasalish shakliga ega. Aniq kelasi zamon –**adi** / –**ydi**/ –**moqchi** affiksi yordamida yasaladi: *U ertaga ishlaydi, Men dars o'qiymen, Men ertaga buvimnikiga bormoqchiman*. Bu shaklda harakat rejalashtirilgan, muqarrar sodir bo'lishi kutilayotgan holatda ifodalanadi. Noaniq kelasi zamon esa yordamchi fe'llar bilan yasalib, **bo'ladi, kerak, mumkin** kabi so'zlar orqali harakatning ehtimolligi yoki zaruriyatini bildiradi: *Men boradigan bo'laman, U buni yozishi mumkin, U kelishi kerak*.

Hozirgi zamonaviy tilshunoslikning muhim va ilg'or yo'nalishlaridan biri bu — **korpus lingvistikasidir**. Korpus lingvistikasi – bu kompyuter texnologiyalari asosida tuzilgan katta hajmdagi matnlar to'plami yordamida til birliklarini empirik tahlil qilishga yo'naltirilgan fan sohasi hisoblanadi. Korpus asosidagi tadqiqotlar til birliklarining real qo'llanishini, kontekstda qanday ishlatilishini, chastotasini, uslubiy va sintaktik xususiyatlarini aniqlash imkonini beradi. Ayniqsa, fe'l zamon shakllarining qo'llanishini tahlil qilishda korpus lingvistikasi vositalaridan foydalanish samarali natijalar beradi. O'zbek tilidagi zamon shakllari grammatik jihatdan ancha rivojlangan tizimga ega. Harakatning sodir bo'lgan, sodir bo'layotgan yoki sodir bo'lishi kutilayotgan vaqtini bildiruvchi zamon formalari tilda turli uslubiy kontekstlarda turlicha ishlatiladi. Shu sababli, an'anaviy grammatika yondashuvi faqat qoidaviy tahlil bilan chegaralanib qoladi va bu holat har doim ham real nutqdagi farqlarni to'liq ochib bera olmaydi. Aksincha, korpus lingvistikasi asosidagi tahlil, zamon shakllarining matndagi haqiqiy ishlatilish ko'rinishlarini, ularning uslubiy o'rni va qo'llanish chastotasini aniqlashga xizmat qiladi.

O'zbek tilidagi fe'l shakllari matnning uslubiy yo'nalishini ham belgilab beruvchi muhim birliklardandir. Har bir til uslubi – ya'ni publitsistik, so'zlashuv, badiiy, ilmiy va rasmiy uslublar – o'zining maqsadi, konteksti va stilistik



mezonlariga qarab fe'l shakllaridan har xil grammatik vositalar yordamida foydalanadi. Korpus lingvistikasi yordamida bu farqlar aniq kuzatiladi va ularning real qo'llanma xususiyatlarini o'rganish imkoniyati yaratiladi. Masalan, publitsistik uslubda fe'l shakllari voqealarning dolzarbligi, aniqligi va ta'sirchanligini yetkazish uchun ishlatiladi. Bu uslubda hozirgi zamon shakllari ("–moqda") va kelasi zamon shakllari ("bo'ladi", "–adi") eng faol ishlatiladi. – *Prezident tashrifi davom etmoqda*. Bunday fe'l shakllari yangilik hissi, harakatning dolzarbligi va rivojlanish xarakterini beradi. So'zlashuv uslubida grammatik qoidalarga qat'iy rioya qilinmasligi mumkin, ammo hozirgi zamon shakllari, ayniqsa, –yapti, –yapman, –yapmiz kabi og'zaki nutqqa xos ko'rinishlar ko'p ishlatiladi. – *U hozir kelyapti*.

Xulosa qilib aytganda, korpus lingvistikasi asosida o'zbek tilidagi fe'l shakllarini tahlil qilish, ularning nafaqat grammatik funksiyasini, balki matn uslubiga, nutq vaziyatiga va ma'nodagi yuklamasiga qarab qanday farq qilishini chuqur va asosli ochib beradi. Bu yondashuv fe'llarning real nutqda qanday ishlatilishini empirik misollar asosida ko'rsatadi va tilshunoslikda nafaqat nazariy, balki amaliy yondashuvga asoslangan tahlil madaniyatini shakllantiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Hojiyev Azim. Fe'l. O'zbekiston SSR "Fan" nashriyoti". T., 1973. 4 b.
2. O'zbek tilining izohli lug'ati. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi davlat ilmiy nashriyoti. T., 2006. 139- 357 b.
3. Shavkat Rahmatullayev. Hozirgi o'zbek adabiy tili. "Universitet" nashriyoti. T., 2006. 182 b.